



TALMEH IN MASHRAB POETRY

Avazova Charos Po'lat qizi

Student of ToshDO'TAU Named After Alisher Navoi

charosavazova04@gmail.com

MASHRAB SHE'RIYATIDA TALMEH

Avazova Charos Po'lat qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU talabasi

charosavazova04@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Boborahim Mashrab ijodida talmeh san'atining tutgan o'rni misollar asosida tahlil qilingan. Bu orqali shoir she'riyatida talmehning g'oyaviy-badiiy ahamiyatini ochib berish maqsadi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, talmeh, payg'ambar, g'azal, lirik qahramon, tarbiya, adabiy meros.

Annotation

The article analyzes the role of the art of talmeh in the works of Baburahim Mashrab on the basis of examples. In this way, the poet's goal is to reveal the ideological and artistic significance of talmeh in his poetry.

Keywords: arts, talmeh, prophet, ghazal, lyrical hero, upbringing, literary heritage.

Sharq mumtoz she'riyati necha asrdirk, insoniyatning ma'naviy-badiiy olamini boyitish uchun xizmat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri Boborahim Mashrab tomonidan qoldirilgan boy adabiy meros ham bu borada salmoqli ahamiyat kasb etadi. XVII asr ikkinchi yarmi, XVIII asr ibtidosida yashab, faoliyat ko'rsatgan Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabning ma'naviy merosini o'rganish ulug' shoir hayot bo'lgan davrdan boshlangan va bu nodir xazinani targ'ib etish harakati hamon davom etmoqda¹. Mashrabshunoslikning ilk poydevorini yaratgan Abdurauf Fitratdan so'ng, V.Abdullaev, Z.Rizayev, Sh.Zunonov, Ismatulloh Abdulloh, M.Zokirov, Rahim Vohidov, Ibrohim Haqqul, Mo'min Hoshimxonov, Jaloliddin Yusufiy singari o'zbek adabiyotshunos olimlari bu soha rivojiga katta xissa qo'shishdi. Bundan tashqari Mashrabning tarqoq she'riy merosi 1958-1980-yillarda Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug'ofurov, Vahob Rahmonov, Komiljon Isroilov tomonidan umumlashtirilib, asarlar to'plami tarzida bir necha bor nashr qilingan[2, b 175]. Rus sharqshunoslari N.I.Veselovskiy, N.S.Likoshin va V.L.Vyatkinlarning tadqiqotlari ham e'tiborga loyiq. Xususan, 1923-

1. Sadridin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. Samarqand, 1962, 169 b.



yil V.L.Vyatkin shoir haqida maqola e'lon qiladi. Unda Mashrabning xalq orasida mashhurligi, asarlari keng tarqalgani ta'kidlanadi. Shu maqolada ilk bor ikki Mashrab masalasi ko'tariladi³. Biroq shoir hayoti va ijodiga doir munozarali masalalar hanuz o'z yechimini to'la topganicha yo'q.

Mashrab asarlari badiiyati o'ziga xos. Uning g'azallari kutilmagan xalqona ifodalar bilan sayqallangan. Shuning uchun el orasida shoh Mashrab deb ma'rufdur. Vodiy bo'yicha bu kishining devoni eskidan o'qulib kelunadur⁴. Shoir adabiy merosini o'rganar ekanmiz, ularda turli badiiy san'atlar ichida, ayniqsa, talmehning o'rni salmoqli ekaniga amin bo'lamiz. Talmeh ("nazar solmoq") she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir[5, b 41]. Mashrab she'riyatidagi turli adabiy janrlarda uchraydigan talmeh san'atini qo'llanilishi va mavzusiga ko'ra, asosan, quyidagicha turlarga ajratish mumkin deb hisoblaymiz:

a) Murtazo, Rasuli anbiyo, Muhammad (s.a.v), Mustafo, Yahyo, Xizr, Luqmon, Sulaymon, Yunus, Muso, Iso, Dovud, Nuh, Ismoil, Ayyub, Zikriyo, Ya'qub, Nuh, Jabroil kabi **farishta-yu payg'ambarlar nomlari** zikr etilgan nazm namunalari;

b) Mansuri Halloj, Boyazid, Hotami Toy, Ibrohim Adham singari **tarixiy shaxslar nomi** keltirilgan nazm namunalari;

c) Sharqda juda mashhur bo'lgan **muhabbat qissalari qahramonlari nomiga**, shu jumladan, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", "Vomiq va Uzro" hamda "Tohir va Zuhro" dostonlari qahramonlariga ishora qilingan namunalari;

d) **O'zidan oldin yashagan ijodkorlar** Shams Tabriziy, Nasimiy, Mullo Bozor Oxund, Ofoq Xo'ja, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, shoir Abdurahmon Jomiy va mutafakkir Farididdin Attor kabilarning nomlari berilgan nazm namunalari va b.

Fikrimiz isbotini shoir g'azallari misolida ko'rib o'tamiz:

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antaxur,

Charx urub, yig'lab tururmen ushbu dam dor oldida[6, 72].

Mashrab o'z ijodida Mansuri Hallojga ko'p bora murojaat qilgan. Shu o'rinda Mansur Halloj asli kim, degan savol tug'ilishi tabiiy. Mansur Halloj musulmonlarning ayrim odatlariga va shariatning ba'zi qoidalariga zid fikrlar aytgan avliyodir. U islomning Alloh to'g'risidagi tavhid aqidasiiga zid ravishda xudo insonda namoyon bo'ladi, inson va umuman, moddiy olam xudoning jilolanishi, „Men haq(xudo)man („Ana-l-haqq“), mening o'zligim — xudoning o'zligidir“, degan fikrni ilgari surgan va bu fikr bilan vahdat ul-vujud ta'limotiga yo'l ochgan⁷. Namozshom paytida Hallojning boshini tanidan judo qilar ekanlar, u tabassum bilan boqardi har andomidan „Anal — haq“ eshitilar, oqqan har tomchi qonidan „Olloh“ naqshi zohir bo'lar edi.⁸ Boborahim Mashrab talmeh san'ati orqali ana shu mutafakkir hayoti bilan o'z taqdirining o'xshashligiga ishoralar qilgan(O'zining ham Mahmud Qatag'on tomonidan o'ldirilishini eslang!)

Jahonni tark qildi Mashrab **Ibrohim Adhamdek**,

Saropo dard ko'rdum, mudaoni ko'rmadim hargiz[6, b 175].

Misrada keltirilgan Ibrohim Adham shohlikni tark etib, darvishlikni tanlagan suluk obrazi hisoblanadi. U biyobon yo'li bilan hajga borishni ixtiyor etib, har bir bosgan qadamining shukronasiga ikki rak'at namoz o'qib boradi. Haj yo'lini shu tariqa o'n to'rt yilda bosib o'tgan[9, b 83]. Mashrab



o'quvchini halollikka, iymon butunligiga undar ekan, bu yo'lda har bir qalbga Ibrohim Adhamdek buyuk ilohiy ishq lozimligini ta'kidlaydi. Dunyoga bog'langan kishi qalbida haqiqiy ishq o'rnini mol-dunyo orttirish istagi zabt etadi. Shoir bu illatdan saqlanish va ibrat olish uchun Ibrohim Adhamning hayotiga talmeh san'ati vositasida ishora qilgan.

Xo'boni jahon bo'lsa, taqi **Yusufi Kan'on**,

Sulton-u amir, banda-yu ozod eshigingda [6, b 66].

Qur'onda "ahsan ul-qasas" - "qissalarning sarasi" deb ta'riflangan Yusuf qissasi bor. Yusuf dunyo go'zalligining o'ndan to'qqiz qismini o'zida jamlagan beqiyos chiroy sohibi hisoblanadi. Shu sababli sharq mumtoz she'riyatida mashuqa go'zalligi Yusuf jamoliga qiyos etiladi.

Sulaymon taxti-yu **Jamshid**ni jomig'a bermasman,

Qo'linga kosai cho'bin olib, qilsam gadolig'ni[6, b 79-80].

Rivoyatda keltirilishicha, Sulaymonga jinlar tilla va ipakdan katta gilam to'qib bergan bo'lib, uning o'rtasiga tilla taxt qo'yilgan, atrofidagi tilla va kumushdan yasalgan 600 ming kursida nabiyar va ulamolar, ularning atrofida odamlar, ularning atrofida jinlar o'tiradi. Shoir yuqoridagi misrada Sulaymon (a.s.)ning shu taxtiga ishora qilgan. Jamshid jomi ham o'z tarixiga ega. "Farhod va Shirin" dostonida Farhod olishi kerak bo'lgan narsalardan biri Jamshid jomi ekanligi aytiladi. "Sad'i Iskandariy"da ham bu so'zni uchratamiz. Xususan, doston qahramoni Iskandar qo'lga kiritgan jom Jomi Ishratfizoy (shodlik ko'paytiruvchi jom) bo'lib, uning xosiyati shunda ediki, qancha ichilsa ham, sharobi tugamasdan, limmo-Iim turardi va egri tutilganda ham undan bir tomchi to'kilmasdi⁹. Mashrab o'tkinchi dunyo ne'matlaridan, hatto Sulaymon taxti-yu Jamshid jomidan ko'ra darveshlikni afzal biladi.

Tutub erdimki domonini **Iskandar** bo'lurman deb,

Shabu ro'ze muqimi ko'yi ul dilbar bo'lurman deb[6, b 113].

Sharq xalqlari adabiyotida eng keng tarqalgan Iskandar obrazi donishmand va adolatparvar hukmdor timsolidir. "Farhod va Shirin" dostonida Navoiy Shohg'arib Mirzoga kamolotga erishish yo'llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Mirzo Ulug'bek qatorida Iskandar Zulqarnayn kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko'rsatadi. "Hayrat ul-abror" dostonining "Osmon tuzilishida shikoyat" maqolatida ham Iskandar haqidagi hikoyat keltiriladi. Unda juda ulkan mamlakat va tuganmas boyliklar hukmdori bo'lishiga qaramay, Iskandarning qo'li ochiq holida dunyoni tark etganligi bayon etiladi. Mashrab misrada shu holatga nozik ishoralar qilgan.

Shabni ro'z aylab mudom taqvoyi toat aylasang,

Misli **Hotam**dek bo'lub xayr-u sahovat aylasang[6, b 164].

Hotam saxiyliги va olijanoblighi bilan dong taratgan shaxs. Yamandagi Toy qabilasidan bo'lganligi uchun Xotami Toy nomi bilan mashhur bo'lgan. Saxiylik, muhtojga yordam berish haqida so'z borganda, albatta, Hotami Toy tilga olinadi.

Qani **Layli**, qani **Majnun**, qani **Shirin** bilan **Farhod**?

Alar o'tdi bu olamdin, bu olam bevafo derlar[6, b 94].

Ishq mavzusi haqida gap ketganda, ko'p hollarda "Layli va Majnun" hamda "Farhod va Shirin" qahramonlarining muhabbati eslab o'tiladi. O'z navbatida bu ishq qissasi ta'sirida qanchadan-



qancha rivoyatlar, afsonalar va dostonlar vujudga kelgan. Majnun Layli vasliga, Farhod Shirin vasliga yetish yo'lida azob chekkan bo'lsa, shoirning "meni" ham har kuni komillik tomon odimlaydi, haq jamoliga yetishmoqni istab, bu yo'lida ko'p riyozat chekadi.

So'fiy shoir talmeh san'atidan unumli foydalangan holda afsonaviy qahramonlar, buyuk tarixiy shaxslarni sanab o'tar ekan, ularning bashariyat oldidagi xizmatlarini yuksak baholaydi, kelajak avlodni ham bundan ibrat olishga undaydi. Umuman olganda, Boborahim Mashrabning she'riyati barkamol avlodni to'g'ri va komil inson qilib tarbiyalashda boy ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Sadriddin Ayniy. Namunai adabiyoti tojik. Samarqand, 1962, 169 b.
2. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o'quv-didaktik majmua.-T.: Sharq, 2014, 352 b.
3. Иқболой Адизова. УЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЁТИ ТАРИХИ (XVI-XIX АСР I ЯРМИ). ЎҚУВ ҚЎЛЛАНАМА /Иккинчи нашр. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти 2009,-247b.
4. Қайюмов П.(Пўлатжон Домулло Қайюмов) "Тазкираи Қайюмий" /Маъсул муҳаррир: Л. Қайюмов/.-Т: "ЎзРФА қўлғезмалар институти таҳририй нашриёт бўлими" 1999.720-б.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.: Sharq, 1998.-240b.
6. Axtarib keldim seni/ Fuzuliy, Mashrab; to'plovchi E.Ochilov.-T: O'zbekiston, 2013. -216 b.
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Halloj_Husayn_Ibn_Mansur
8. Farididdin Attor. Tazkirat-ul Avliyo. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".T.: 1997, 138-bet.
9. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik.-T.: "Tamaddun", 2018.-520b.